

**ZAMONAVIY ELEKTRON O'QUV USLUBIY TA'MINOTINI
TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH ORQALI O'QITISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Xolmonov Shodiyor Qarshiboyevich¹,
Nurmuxamedova Tursunoy Usmonovna²
^{1,2}Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti
E-mail: shodiyor.x89@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqoladan asosiy maqsad elektron darsliklar yaratish texnologiyasi, fanni o'quv uslubiy majmuasini yaratish hamda uning yaxlit informatsion modelini yaratishdan iboratdir.

Ta'lismiz har bir fan bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va joriy qilishni nazarda tutadi. Shu sababli o'quv-uslubiy majmuasini elektron shaklda yaratish bir qancha samarali natijalarni beradi. Ushbu maqolada o'quv uslubiy majmualarni elektron shaklda yaratishning ayrim usullarini va afzalliklarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: o'quv uslubiy majmua, elektron darslik, ta'lismiz dasturlari, ta'lismiz, innovatsion texnologiyalar.

Hozirgi kun talabidan kelib chiqib, malakali kadr mutaxassislarni tayyorlash O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismiz to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ga muvofiq oliv ta'lismizdagi dolzarb vazifalardan biridir. Respublikamizda ta'lismiz-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashdan iborat.

Bu o'z navbatida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lismiz standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lismiz dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etishni talab etadi. Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda ushbu mavzu misolida o'qitishning pedagogik innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish maqsad qilib olindi.

Elektron darsliklardan darsda foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin.

Elektron darsliklar yaratish texnologiyasi ham aynan axborot texnologiyalarining ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Shu munosabat bilan elektron darsliklar yaratish texnologiyasini ma'lum bir modelini va o'quv uslubiy majmuasini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.

Elektron darslik sahifasi bir qancha sohalarni o'z ichiga oladi:

- sahifaning darslikda joylashgan o'rmini ko'rsatuvchi sohasi (sahifa nomeri, mavzu yoki mavzu osti nomlanishi);

- matnga grafik qo'shimchalar (formula, grafik, jadval va h.k.), gipermatnlar kiritilishi mumkin;
- sahifadagi o'quv materialining qisqacha mazmuni joylashgan soha (sxemakurs shaklida);
- sahifada boshqaruv elementlari joylashgan soha (oldingi, keyingi sahifaga, mundarijaga o'tish tugmalari, yordamchini chaqirish tugmasi);
- sahifadagi matnga aloqador, katta ilmostratsiya va jadvallar darslik resurslarida saqlanadi, yoki boshqa sahifalarda joylashadi. Ular ekranga gipermatnlar yordamida yoki sahifadagi maxsus tugmachalar yordamida chaqiriladi;
- o'quv materialining qisqacha mazmuni. O'quv materialining to'liq matni bilan bir qatorda qisqacha mazmunining ham bo'lishi juda muhim. Sxemakurs shaklida, ya'ni grafik-matn shaklida (strukturali blok-sxema) berilishi yaxshi samara beradi.

Elektron darsliklarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va o'quv jarayonida keng foydalanish dolzARB masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta'lim sohasida qo'llanila boshlandi. Oxirgi vaqtarda elektron o'quv nashrlarning turli xillari yaratilib, ular o'z tarkibiga oddiy gipermatn darslikdan tortib masofaviy o'qitishning kompleks tizimlarigacha qamrab olmoqda.

Elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- matnning elektron versiyasi;
- kitobning gipermatnli elektron versiyasi;
- grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Elektron darslik yaratish vositalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- dasturlash algoritmik tillari;
- ommaviy qo'llanishga mo'ljallangan instrumental vositalar
- multimedia vositalari;
- gipermatn va gipermedia vositalari;

Elektron dasrliklar yatuvchi dasturlarning nomlari har xil, lekin ularni boshqarilish tamoyillari deyarli bir xil bo'ladi. Ularning ba'zilari qo'shimcha imkoniyatlari mavjudligi va ularda darslik tayyorlash qulayligi bilan farqlanadi.

Dastlab elektron darsliklar o'ta sodda ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa endilikda turli inson ruhiyatiga ta'sir etadigan tasviriy vositalar bilan boyimoqda. Bunday vositalarga turli animatsiya va video fayllarni kitish mumkin.

Elektron darsliklarning odatiy nashrlardan bir qancha afzallikkarga ega. Birinchidan ma'lumotlarni yangilash va tarqatish juda qulay. Ikkinchidan katta hajmdagi ma'lumotlarlar orasidan kerakli ma'lumotlarni izlash juda qisqa vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Elektron darsliklar masofa bilmaydi. Dunyoning istalgan chekkasidan turib ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Bugunki kunda elektron darslik yaratish va tatbiq etishda ularning bir necha turlari amaliyotda uchramoqda. Ushbu maqolada Auto Play dasturidan foydalanib fanning elektron o'quv uslubiy ta'minotini yaratish haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Ushbu dastur yordamida "Raqamli qurilmalarni loyihalashga kirish" fani bo'yicha elektron o'quv uslubiy


majmuasini yaratildi. Quyida ushbu majmuaning yaratish ketma-ketligini ko'satib o'tiladi:

1. Dasturga kirganimizda dastlab shu ko'rinishda oyna ochiladi:




1-rasm. Auto Play dasturining boshlang'ich oynasi

2. Dastur ochilganidan keyin biz o'zimiz yaratmoqchi bo'lgan elektron darslikning nomi va uni qanday ko'rinishda bo'lishi kerakligini tanlab olamiz:



3. Majmua o'z ichiga qancha sahifa olsa, o'sha sahifalarni ketma-ketlikda xosil qilib olamiz va ularga kerakli tartibda ishlov beramiz:



Xulosa qilib takidlash lozimki, o'qitishning zamonaviy shakl va metodlarini qo'llash, talabalarning bilim olishida muhim rol o'yaydi, shuningdek o'qituvchilar pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib, o'z faoliyatlarida unumli qo'llay olsalar, ta'limni sifat va samaradorligiga erishilgan bo'ladi. Mavzuni yakunlab quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

- mavzuni o'qitishda pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha uslubiy adabiyotlar yaratish;
- mavzu bo'yicha elektron o'quv majmular yaratish;
- mavzuni o'qitishda elektron darsliklardan keng foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmonov S., Abdullayev A. TEKNIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 717-721.
2. Nurmukhamedova T. U., Ulashov S. R., Kholmonov S. Q. PRINCIPLES OF CREATING VIRTUAL LABORATORIES IN ENGINEERING EDUCATION //Актуальные проблемы инфотелекоммуникаций в науке и образовании (АПИНО 2020). – 2020. – С. 387-391.